

6. Berardo, S.A (2006). The use of authentic materials in the teaching of reading
7. Gebhard, J. G. Teaching English as a Foreign or Second Language. A Self-Development and Methodology Guide (second edition). The University of Michigan Press, 2006.
8. Nuttall, C. (1996) Teaching Reading Skills in a foreign language (New Edition) Oxford, Heinemann.
9. Jacobson, E., Degener, S. and Purcell-Gates, V. Creating Authentic Materials and Activities for the Adult Literacy Classroom: A Handbook for Practitioners. USA: NCSALL, 2003.
10. Goodman, K (1988) The Reading Process in Carrell, P.L., Devine, J. & Eskey, D.E. (Editors) (1988) Interactive Approaches to Second Language Reading Cambridge, C.U.P. p 11-21.
11. Gilmore A. Authentic Materials and Authenticity in Foreign Language Learning // Language Teaching. 2007. Vol. 40 (2). p 97-118.
12. Murray, L. (2015). Using Authentic Materials in the Foreign Language Classrooms: Teacher Attitudes and Perceptions in Libyan Universities. International Journal of Learning & Development, 5(3), p 25-37.

KONTENTGA ASOSLANGAN HOLDA TIL O'QITISHNING DIDAKTIK JIHATLARI

Marifat ShUKUROVA
TDIU PhD doktorant

***Abstrakt.** Kontentga asoslangan holda chet tilini o'qitish metodikada dinamik yondashuv sifatida paydo bo'ldi, bu usul chet tilni o'qitishni turli akademik fanlarning mazmuni bilan birlashtiradi. Ushbu maqolada bu sohadagi asosiy olimlarning tadqiqot natijalari va tushunchalari, nazariy asoslari va uni amalga oshirishning samaradorligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** kontent, chet tili, mazmun, integratsiya.*

Kontent va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish zamonaviy metodlardan hisoblanadi. Bu ingliz tili kabi chet tilini o'rganishda, ma'lum bir sohaga oid fan masalan, iqtisod, muhandislik, tibbiyot va boshqalar yetakchi negiz hisoblanadi. Konsepsiya keng ma'noda qo'llaniladi, chunki integratsiyaning ko'plab usullari mavjud.

Kontent asosida til o'rgatish tushunchasi nisbatan innovatsion bo'lsa-da, bu usul ta'limning o'zi kabi uzoq vaqtdan beri mavjud. Har bir kasb egasi chet tilini o'rganish

amaliyotida muhandislik, san'at yoki moliyani o'rganib bu uslubdan foydalanganlar. 1990-yillarda kontent asosida til o'rgatish atamasi eng ko'p ishlatiladigan konsepsiya sifatida qo'lanila boshlandi. Til o'rgatishda sezilarli darajada kengroq ta'sirga ega ushbu yangi uslubiy yondashuv metodika tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Til va mazmunning integratsiyasi bu yondashuvining asosiy xususiyati bo'lib, u fan bilimi va chet tilini o'zlashtirish bir-birini to'ldiruvchi va bir-biriga bog'liq bo'lgan o'lchovlar ekanligini ta'kidlaydi (Marsh, 2002). Talabalarning chet tilini bilish darajasini yanada samarali tarzda rag'batlantirish bu yondashuvning asosiy maqsadi hisoblanadi. Koyl (2007) ga ko'ra, integratsiya muvaffaqiyatli o'qitish strategiyasi bo'lib, u chet tilini o'zlashtirishni maqsad va vosita sifatida qo'llab-quvvatlaydi va shu bilan birga fan bo'yicha ta'lim maqsadlariga erishadi. Talabalarning maqsadli tilini rivojlantirish, ularga birinchi tilni o'rganishga o'xshash tajriba va muhitni yaratadigan mazmunli vaziyatlarga ega bo'lgan haqiqiy sharoitlarda amalga oshirilishi kerak. Talabalarga chet tilida o'z mahoratini oshirish uchun ko'proq imkoniyatlar va haqiqiy materiallar berilsa-da, ular ko'p jihatdan tildan tez-tez foydalanish orqali mavzumni chuqurroq tushunishadi (Koyle va boshqalar, 2010).

Kontentga asoslangan til o'qitish texnologiyasi ingliz tili yoki boshqa chet tilini maxsus fan mavzularini birlashtirish orqali o'rganishga yondashuvdir. Ba'zi kontekstlarda bu usul tanlab olinadi va bu tanlov kognitiv qobiliyatlarga asoslanishi yoki ijtimoiy-iqtisodiy asoslar bilan ham bog'lanishi mumkin (Van Mensel va boshq., 2020).

Kontent va chet tili hamkorligi bu yondashuvning asosiy vazifalaridan biridir, chunki bu ikki element o'rtasidagi bog'liqlik har qanday faoliyatning asosini tashkil etadi (Llinares & Morton 2017; Nikula va boshq., 2016; Ruiz de Zarobe va Ximenez Katalan, 2009). Ruiz de Zarobe va Koyle (2015) fikriga ko'ra, ushbu yondashuvning mazmuni tizim yaratishdir; u o'quv predmetini, maqsadi va vazifasini yoki nazariy bilim va qobiliyatlar to'plamini belgilaydi. Kognitiv kontseptsiya yondashuvining maqsadi talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tushunish va bilimlarni tahlil qilish, sintez qilish va baholashgacha oshirishlari mumkin bo'lgan samarali ta'lim muhitini yaratishdir (Grandinetti, Langellotti va Ting, 2016).

Kontent asosida til o'qitishning predmeti va lingvistik mazmuni bir necha jihatdan farq qilishi mumkin, natijada modellar ham tilga, ham mazmunga asoslanadi. Bu usulidan foydalangan holda kurs yaratishda quyidagilarni hisobga olish kerak: Madaniyatlararo tushunish yo'li: "Mazmun: yangi bilim, ko'nikma va mavzu bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish va egallash; Muloqot: egallash uchun tildan foydalanishni o'rganish. Bilim: kognitiv va aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish; Madaniyat: muqobil madaniyat mavjudligini anglagan holda madaniyatning bir qismini aniqlash" (Koyle, Hood & Marsh, 2010).

Kummins (2008) kontentga asoslangan holda til o'qitishning asosiy komponenti sifatida kognitiv akademik til malakasi tushunchasini kiritdi. Uning ta'kidlashicha, talabalarga mazmun va akademik nutq bilan shug'ullanish imkoniyatini berish orqali kognitiv va lingvistik ko'nikmalarini oshiradi.

Larsen-Friman (2000) bu konsepsiya tarkibida vazifaga asoslangan yondashuvni qo'llab-quvvatladi, unga ko'ra talabalar muloqot va muammolarni hal qilish uchun tildan foydalanishni talab qiladigan haqiqiy vazifalarni bajaradilar. Bu vazifalar tushunish faoliyatidan tortib loyihalarga asoslangan holda ham bo'lishi mumkin. Uning ta'kidlashicha, vazifaga asoslangan faoliyat tildan foydalanish uchun mazmunli kontekstlarni taqdim etish orqali tilni o'zlashtirishga yordam beradi.

Umuman olganda, kontentga asoslangan tilni o'qitish chet tilini maxsus kontekst bilan bog'lash orqali til o'rganishga boy va qiziqarli yondashuvni taklif etadi, bu esa talabalarning motivatsiyasi va tushunishini kuchaytiradi va tilni bilish darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dana Hanesová. A brief history of CLIL and CLIL in Jyväskylä. 23 July 2015
2. Llinares & Morton 2017 Content and Language Integrated Learning (CLIL): Type of programme or pedagogical model?
3. Richards, J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge. 2014
4. Snow M. A., Brinton D. M. The Content-based Classroom. New York: Longman. 1997

5. Marsh, D. CLIL/EMILE-The European Dimension: Actions, Trends and Foresight Potential [M]. Brussels: The European Union, 65- 70. 2002
6. Coyle D. Content and Language Integrated Learning: Towards a Connected
7. James Cummins: BICS and CALP Teacher inspiration, Interpersonal communication skills, Interpersonal communication. 2008
8. Diane Larsen-Freeman. 2000. Techniques and Principles in Language Teaching. Second Edition. Oxford: Oxford University Press.

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA GAP BO'LAKLARI MASALASI VA ULARGA BO'LGAN TURLIChA YONDASHUVLAR

Khusnurakhon KOSIMOVA
ADChTI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Antrosentrik tilshunoslik rivojlanib borar ekan til birliklarining ochilmagan qirralariga nisbatan qiziqish keskin oshib bormoqda. Hozirgi zamon tilshunosligi sintaksisining eng markaziy masalalaridan biri gap, uning bo'laklari va ularning darajalanishi, xususan, kirish bo'laklar va boshqa darajalanishga kiritilmagan bo'laklarni sintaktik maqomini aniqlash hisoblanadi. Ushbu maqolada gap, uning bo'laklari, kirish bo'laklar va ularning darajalanishi tahlilga tortilgan.

Gap nazariyasi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar orasida prof. L.S. Barxudarov tadqiqotlari e'tirofqa sazovordir. Gap nazariyasida L.S. Barxudarovning gapga bo'lgan qarashlari o'zining sof grammatik xususiyatlari sababli e'tiborga loyiq. Ayniqsa, uning gapga bergan ta'rifi o'zgachadir: "Gap (sentence) deb, ega va kesim strukturasidan iborat bo'lgan shunday til birligiga aytiladiki, unda mazkur struktura uni minimal nutq birligiga aylantira oladi" [1, 425]. Shunday qilib, gap deganda L.S. Barxudarova ta'biriga ko'ra ega-kesimli strukturani tushunish kerak. Masalan, "Bolalar keldi" – "The children have come".

Shuni ham ta'kidlash lozimki, ba'zan gaplar quyidagi tarkibga ega bo'lishi ham mumkin: "Albatta, bolalar keldi" – "Of course, the children have come". Bunday gaplar ega-kesimdan tashqari tarkibida kirish bo'lak borligi bilan ham yuqoridagi gaplardan farq qiladi. Demak, gapning strukturasini kirish bo'lak kengaytirishi mumkin ekan, shu bois uning grammatik ta'rifiga ham biroz o'zgartish kiritish mumkin. Unda gapni "Gap